



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 506 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Сойбова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odiljonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismoniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinov To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	
Talabalarni kreativ yondashuv asosida tarbiyaviy–innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlari.....	127
<i>Adizova G. M.</i>	
Iqtidorli bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash	131
<i>Ismoilova Adolat Anvarovna</i>	
STEAM – ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish metodikasi	134
<i>So'fiboyeva Gulchehra Mamurjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar va kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	138
<i>Fayzullayeva Xovoxon Xayrullo qizi</i>	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlashda tarbiyachining roli.....	142
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi, Boqiyeva E'zoza Mashrab qizi</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta'lim-tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari.....	146
<i>Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi</i>	
Xalqaro ta'lim tashkilotlari faoliyatining nazariy asoslari.....	150
<i>Abdusamadova Aziza Kamoliddin qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy texnologiyalar asosida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi sifatida.....	153
<i>Shanazarov Otabek</i>	
Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari	158
<i>Radjapova Xuzra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Matematika ta'limida modellashtirishning psixologik va metodik asoslari: disum loyihasi tahlili.....	161
<i>Xaydarov Xurshid Ismatovich</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda gandbolchilarning tezkorligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	166
<i>Ismatullayeva Zuhra Rustam qizi</i>	
Osiyo xalq o'yinlari asosida jismoniy tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning pedagogik shartlari	170
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda klasterli ta'lim muhitining imkoniyatlari.....	173
<i>Abduraxmanov M. B.</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash.....	178
<i>Chinaliyeva Ayjamal Baxitjanovna</i>	
Talabalarda raqamli ta'lim madaniyatini rivojlantirish.....	181
<i>Eshqurbonova Nafisa Bahodir qizi</i>	
Blended Educational Technologies in Higher Education: A Systematic Analysis of Foreign Research.....	183
<i>Fozilova Maxina Adashevna</i>	
Voyaga yetmaganlarda deviant xulq shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning roli.....	188
<i>Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Saydazimov Alisher Nurali o'g'li</i>	

Boshlang'ich tayyorlov guruhida ulotqirish texnikasi elementlarini o'rgatish samaradorligi.....	191
<i>Hayitmurodova Nasiba Abdusalimovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tarbiya fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirish zaruriyati.....	197
<i>Inoyatova Zulfiya Xamdammovna</i>	
Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishning metodologik asoslari.....	199
<i>Karimova Madinabonu Dilshodbek qizi</i>	
Kompetentligini baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish	203
<i>Kayumov Oybek Achilovich</i>	
Kasbiy refleksiya asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish.....	209
<i>Miraxmedova Mubina Mirxalil qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish.....	211
<i>Nisanbayeva Akmaral Kaldibayevna</i>	
Maxsus ta'lim dasturlari orqali iqtidorli talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish	214
<i>Rayimova Shahlo Sobirjon qizi</i>	
STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlari	217
<i>Toshev Elbek Choriyevich</i>	
Innovatsion texnologiyalar va ularning tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash tizimidagi roli.....	223
<i>Usmanov Botir Allaberdievich</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda volontyorlik faoliyatining ahamiyati.....	227
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda robototexnikaning ahamiyati va o'rni	230
<i>Xodiyeva Dilrabo Pirimovna</i>	
Working With Visual AIDS in Teaching English in Primary Education	233
<i>Yunusova Nodira Akhmadjanovna</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	237
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
The Psychological Impact of Social Media on Youth	242
<i>Dilfuza Qarshiboyeva</i>	
Maktab direktori nutq etiketi – ta'lim menejmentida jamoatchilik bilan samarali muloqot asosi	246
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna</i>	
Dizartriyali bolalar monologik nutqini innovatsion texnologiyalar orqali rivojlantirish.....	250
<i>Pardayeva Muxlisa</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida bilish jarayonlarning ahamiyati.....	257
<i>Xaydarova Umidaxon Baxromjon qizi</i>	
Enhancing the Professional Competence of English Language Teachers.....	259
<i>Karimova Dilshoda Sodiqjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda montessori metodi bo'yicha sezgir davrlar	264
<i>Tojiakhmedova Maftuna Umarjon qizi</i>	
"Personal learning assistant" vositalari asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimidagi zamonaviy tendensiyalar tahlili.....	268
<i>Muradova Maftuna Komilovna, Turobova Ro'zoy Bekmurotovna, Xayrullayev Mo'minbek Anvar o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	272
<i>Ravshanova Dildora Sagdullayevna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida elektron axborot-ta'lim muhitining mohiyati va tarkibiy tuzilmasi.....	279
<i>Temurov Sobirjon Yo'ldoshevich</i>	
Zamonaviy ta'lim menejmentida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati (boshlang'ich ta'lim misolida) ..	283
<i>Pardaboyev Doston</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning hamkorligida qadriyatlar tarbiyasining amaliy asoslari	286
<i>Xaydarova Mavluda Mo'yidinjon qizi</i>	



Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bosqichlari va samarali shakllari.....	292
<i>G'oziyeva Mohlaroyim Qodirxon qizi</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarning (aqliy nuqson) ovqatlanish tartibi	295
<i>Sh. M. Ro'ziyeva</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida imlo savodxonligini oshirishda geymifikatsiya o'yini orqali samarali tashkil etish	299
<i>Mergenbaeva Asiya Erkebaevna</i>	
Musiqa o'qituvchisining pedagogik muloqatining ta'lim jarayonidagi ahamiyati	304
<i>S. M. Raxmonberdiyeva</i>	
Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish darslarida zaif eshituvchi o'quvchilarning nutqini rivojlantirish	307
<i>Abdulxamidova Gulnoza</i>	
Ispaniya davlati ijtimoiy hayoti, madaniyati va o'ziga xos ta'lim tizimi	311
<i>Umarova Malika Xisabidinovna, Sabirova Nodira Ibrohimovna</i>	
Ertaklardagi so'zlardan foydalangan holda nutqi rivojlanmagan bolalarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish metodologiyasi	316
<i>G'opporova Mahliyoxonim</i>	
Tarbiya fanida hadislar va milliy qadriyatlarni integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari	319
<i>Axmedov Boburjon Vasikovich</i>	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimida o'quv-biluv kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari	324
<i>Mirzayev Shavkat Turdibayevich</i>	
Mustaqil ta'lim olish faoliyati tushunchasining pedagogik mohiyati va tarkibiy tuzilmasi (fizika fani bo'yicha).....	328
<i>Esanmurodov Otamurod Boboqand o'g'li</i>	
Oliy ta'limda immersiv yondashuvning mohiyati.....	333
<i>Muradova Maftuna Komilovna, Jontemirova Nozima Abdijabbor qizi</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlari tizimida sportchilarning psixologik tayyorgarligini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	337
<i>Yigitaliyev A. F.</i>	
Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasida o'quvchilarning harakat faolligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari.....	343
<i>D. R. Abdusalomov</i>	
Futbolchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi...	348
<i>Mirbabayev Muzaffar Ismatillayevich</i>	
Empirik tushunchalar va ularning hospital pedagogikadagi pedagogik-psixologik roli	353
<i>Sapayeva Mavluda Shanazarovna</i>	
Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash va huquqiy himoya.....	357
<i>Ibragimova Feruza Bahodirxonovna</i>	
Integrativ yondashuv asosida kongruentlik kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar.....	362
<i>Kamalova Dilobar Tairovna</i>	
Og'ir atletikachilarning ko'p yillik tayyorgarlik jarayonini tashkil etish	366
<i>Raximov Farxod Maxmudovich</i>	
Haqiqiy materiallardan foydalangan holda o'qishni o'rgatish	370
<i>Axmedov Husen Uzairovich</i>	
Maktabgacha ta'limda innovatsion va fiziologik yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	376
<i>Ruziyeva Gulsara Temirqulovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarning jismoniy tarbiyasi.....	380
<i>Nazarov Zokir Abdurahmonovich</i>	
Tafakkur va mantiqiy fikrlash bo'lajak pedagog shaxsining nutq madaniyati omili sifatida	383
<i>A. Sh. Jumayev</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida turizm vositasida tolerantlikni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	386
<i>Abdumannatova Aziza Abdumajit qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Zamonaviy didaktik vositalar asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari..... 390 <i>Asobayeva Noila Samatovna</i>
	Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini samarali tashkil etish 395 <i>Axmedova Zebixon Siddikovna</i>
	Talaba shaxsini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga qo'yilgan pedagogik talablar 399 <i>Boliyev Uchqun Ismatovich</i>
	Translation of Phraseological Units in Mass Media Texts..... 402 <i>Eshmurodova Ziyodaxon Urinbayevna</i>
	Phraseologisms in Modern Russian: A Corpus-Based Analysis of Structural, Semantic, and Functional Dynamics 405 <i>Farkhod Kholmatov</i>
	Yosh sportchilarda sprinterlik qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yin uslubidagi mashqlarning o'rni..... 413 <i>G'oibov Yusufali Buxoraliyevich</i>
	Imitatsion mashqlarni nutqni avtomatizatsiyalash jarayonida qo'llash metodikasi 417 <i>G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna</i>
	1879-1894-yillarda yevropa va aqshdagi asos soluvchi laboratoriyalar evolyutsiyasi orqali eksperimental psixologiya genezisining qiyosiy-tarixiy tahlili..... 420 <i>Haydarov Farhod Ilnazarovich</i>
	Maktab direktori nutq etiketi – ta'lim menejmentida jamoatchilik bilan samarali muloqot asosi 423 <i>Islamova Dilfuza Dilshodovna</i>
	Bolalarda gigiyeniya qoidalarini o'rgatishning pedagogik ahamiyati 427 <i>Kalkonova Lutfiya Yusufovna, Safarova Qizlarxon</i>
	Kasbiy refleksiya va portfolio metodining ta'lim jarayonidagi ahamiyati 430 <i>Ismoilova Adolat Anvarovna, Kamoliddinova Mahliyoixon Zohidjon qizi</i>
	Практическая работа по развитию логического мышления учащихся начальных классов через дидактические игры 433 <i>Отажонов Ж. М., Мамарасулова М. А.</i>
	Umumta'lim maktablarida "tarbiya" fanini o'qitish jarayonida mavjud muammolar, ularning sabablari va takomillashtirish yo'llari..... 436 <i>Mamirova Shaxnoza Xudoyqulovna</i>
	Word Formation and Vocabulary Enrichment in Modern English and Uzbek Languages 440 <i>Muminova Feruza Muratdjanovna</i>
	Nodavlat ta'lim tashkilotlarining maktabgacha ta'lim tizimidagi o'rni va rivojlanish tendensiyalari 443 <i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>
	Shaxs taraqqiyotining turli bosqichlarida refleksiyaning rivojlanishi 447 <i>N. I. Xalilova</i>
	Bo'lajak o'qituvchilarda inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari 450 <i>Omanqulova Shohida Nematillo qizi</i>
	Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvning uyg'unligi 455 <i>O'tkirova Zuhraon Ahmedjanovna</i>
	Developing Listening and Speaking Skills in Middle School 458 <i>Rakhmonova Dilrabokhon Salokhiddin kizi</i>
	Bolalarda gigiyena qoidalarini o'rgatishning pedagogik ahamiyati 461 <i>Kalkonova Lutfiya Yusufovna, Safarova Qizlarxon</i>
	Avlodlar nazariyalari haqidagi mulohazalarning nazariy tahlili: baby boomerlar, X, Y, Z avlodlari..... 464 <i>Umarova Sitora Muxlisovna, Sharifova Mahtob Murodjonovna</i>
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari 467 <i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Sofoyeva Oysha Davlatyorovna</i>
	Boshlang'ich sinflarda arifmetik amallarni o'rgatishning samarali metodlari..... 470 <i>Solijonova Mavluda Zokir qizi</i>



Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari.....	472
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	
Chaqiriqqacha harbiy ta'limda talabalarning harbiy ko'nikmalarini shakllantirishda psixologik omillarning o'rni.....	477
Tursunov Shaxzod Ramazonovich	
Bolalarning jismoniy faolligini oshirish va jismoniy rivojlantirish bo'yicha noan'anaviy jismoniy mashqlarning ahamiyati	480
Xalmatova Nasiba Bozorboyevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirish muammolari	485
Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini rivojlantirishda bolalar adabiyotidan foydalanish ..	488
Yuldoshova Mehriniso Ochildiyevna	
Hosila va uning tatbiqlarini o'rgatishda zamonaviy yondashuvlar	491
Absamatov Zuxriddin Axmad o'g'li	
Развитие речи у детей как ключевой фактор формирования личности.....	496
Дустова Дилдора Собиржановна	
Boshlang'ich sinflarda geometrik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi	498
Imamova Nasiba Xurramovna	
Дидактические основы подготовки будущих педагогов к лекционной деятельности.....	501
Нодира Азаматова	

MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION VA FIZIOLOGIK YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ruziyeva Gulsara Temirqulovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
"Tabiiy fanlar" kafedrası, PhD, v.b. dotsent

ORCID: 0009-0009-2634-063X

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning savodxonligini oshirish jarayonida zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, bolalarni har tomonlama intellektual rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar hamda ularning fiziologik xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: intellektual rivojlanish, axloqiy-estetik tarbiya, anatomik va fiziologik xususiyatlar, qalqonsimon bez, nutq rivoji, motorika, ko'nikma, refleks.

Abstract: The paper examines the improvement of literacy among preschool children through the implementation of modern educational programs and technologies, as well as highlights innovative approaches to comprehensive intellectual development considering children's physiological characteristics.

Key words: intellectual development, moral and aesthetic education, anatomical and physiological features, thyroid gland, speech development, motor skills, competence, reflex.

Аннотация: Рассматриваются вопросы повышения грамотности воспитанников в дошкольных образовательных учреждениях на основе внедрения современных образовательных программ и технологий, а также освещаются инновационные подходы к всестороннему интеллектуальному развитию детей с учётом их физиологических особенностей.

Ключевые слова: интеллектуальное развитие, нравственно-эстетическое воспитание, анатомические и физиологические особенности, щитовидная железа, развитие речи, моторика, навыки, рефлекс.

KIRISH

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni har tomonlama tarbiyalash va voyaga yetkazish ota-onalar, tarbiyachilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu esa, o'z navbatida, barcha tarbiyachilar oldidagi dolzarb va muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Qaysiki, bola kelgusida ulg'ayib, qanday kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar, maktabgacha yosh davrlari o'ta muhim o'rin tutadi, shu bois bog'cha yoshidagi bolalarni tarbiyalashda, avvalo, uning anatomik va fiziologik holatiga jiddiy e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Chunki ilmiy jihatdan asoslangan muayyan fiziologik va psixologik o'zgarishlar har bir bola ulg'ayishida kuzatiladi hamda bola shaxsi tabiiy ravishda o'zgaruvchan harakatlarga moslasha boradi.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachi innovatsion faoliyatning sub'ekti hisoblanadi. Chunki innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoni ustuvor masala bo'lib, tarbiyachi o'z faoliyatida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilarning tegishli organlarining anatomik va fiziologik tuzilishi, gigienasi, o'sish va rivojlanish qonuniyatlari hamda yosh xususiyatlarini mukammal bilishi zarur. O'sib kelayotgan organizmni to'g'ri tarbiyalash uchun bola organizmining o'sishi va rivojlanishiga bog'liq asosiy xususiyatlarni, albatta, hisobga olishimiz lozim bo'ladi.



Maktabgacha davr – bu bolalarning o'sish, rivojlanish, o'zini namoyon etishga intilish, o'rganish va bilishga ishtiyoqi kuchli bo'lgan davr hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarning insoniy sifatleri va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim-tarbiya har bir bolaga individual yondashishni, bolaning qiziqishi va yosh xususiyatlariga mos holda ta'lim berishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifasi – har bir bola shaxsini yosh davrlariga mos tarzda sifatli rivojlantirish va uni navbatdagi ta'lim bosqichiga puxta tayyorlashni ta'minlash, shuningdek, muassasada ijobiy muhitni yaratishdir. Maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida ota-onalarni hamkorlik asosida jalb qilish ishlariga alohida e'tibor berish muhim. Sir emaski, ota-ona bolaning birinchi ustozini hisoblanadi.

Muhim tarbiyaviy vazifalardan biri – bola hayoti va sog'lig'ini himoyalash, tasavvur hamda nutqini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzi va gigienaga amal qilish ko'nikmalarini singdirishdan iborat. Bolani tabiat bilan tanishtirish asosida ona tabiatni asrab-avaylash, o'simliklarni parvarish qilish ko'nikmalarini rivojlantirish vazifalari kengaytiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining vazifasi maktab yoshiga yetgan har bir bolani maktab ta'limiga sifatli tayyorlashdan iborat. Bolaning jismonan sog'lom, aqliy jihatdan yetuk bo'lishida homiladorlik davrining har jihatdan me'yorda kechishi, bolaning ona qornida me'yorda rivojlanishi va har tomonlama sog'lom tug'ilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan. Jumladan, S.X. Aripova va G.A. Shaxmurova tomonidan ishlab chiqilgan "Yosh fiziologiya va gigiena" asarida bola organizmining o'sish va rivojlanish qonuniyatlari, fiziologik jarayonlarning yoshga xos xususiyatlari hamda ta'lim jarayonida ularni hisobga olish zarurligi asoslab berilgan 2013. Ushbu tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va psixik rivojlanishini uyg'unlashtirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi va oila hamkorligiga oid ilmiy manbalarda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda ijtimoiy muhit va pedagogik ta'sirning o'zaro bog'liqligi keng yoritilgan. Xususan, "Maktabgacha ta'lim muassasasi va oila hamkorligi" modulida bola rivojlanishida oila va ta'lim muassasasining integratsiyalashgan faoliyati muhim omil sifatida ko'rsatiladi 2012. Bu yondashuv innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishda ham muhim ahamiyat kasb etib, bolaning shaxs sifatida shakllanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, N. Qayumovanning "Maktabgacha pedagogika" asarida hamda "Bolajon" tayanch dasturida maktabgacha ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish masalalari keng yoritilgan 2013, 2016. Ushbu manbalarda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, bolalarda nutq, tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Bu esa maktabgacha ta'limda fiziologik va pedagogik yondashuvlarning integratsiyasini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar kuzatuv, pedagogik tajriba va suhbat usullari orqali yig'ildi. Tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasi va faoliyati muntazam monitoring asosida qayd etildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, tahliliy yondashuv hamda statistik umumlashtirish usullari yordamida qayta ishlanib, natijalarining ishonchligi aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Go'dakning vazni tug'ilgan paytda o'rtacha 3,5 kg, bo'yi 50–55 sm atrofida, uch oylik davrida 5–6 kg, bo'yi 65 sm bo'ladi. Bola dunyoga kelganda harakat faoliyati, jismoniy rivojlanishi shakllana boshlaydi, asta-sekin o'z tanasini boshqaradi, tik holatda boshini ushlab turadi. Bolaning vazni tug'ilganidan keyingi birinchi oyda o'rtacha 600 gr, ikkinchi oyda 800 gr ortadi. Bir yashar bolaning vazni tug'ilgandagi vaznidan uch marta ortadi va 9–10 kg ga yetadi.

2 yoshda bolaning vazniga 2,5–3,5 kg qo'shiladi. 4–5–6 yoshlarda bola vazniga har yili 1,5–2 kg dan vazn qo'shilib boradi. 7 yoshdan boshlab bola vazni tez ortib boradi. Rus gigienisti N.P. Gundobin bolalik yillarini davrlarga birlashtirdi. Har bir davr o'z ichiga bir nechta yillarni qamrab oladi. Har bir davrda o'ziga xos fiziologik o'zgarishlar sodir bo'ladi.

1-davr – ona qornidagi rivojlanish davri. Nomila har tomonlama ona organizmiga bog'liq bo'ladi.

2-davr – yangi tug'ilgan chaqaloqlik davri. 1 kundan 10 kungacha bo'lgan davr hisoblanadi. Bu davrda bola yangi hayotga moslasha boradi. Ilk bor mustaqil ravishda nafas oladi. Bola organizmidagi analizatorlar tizimi mustaqil ishlay boshlaydi.

3-davr – ko'krak yoshi davri chaqaloqlik davridan 2 yoshgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Bola vazniga o'rtacha 2,5–3,5 kg qo'shiladi. Nutq paydo bo'ladi. Qalqonsimon, ayrisimon va gipofiz bezlarining funksiyasi kuchayadi.

Ba'zi tizimlarning funksional jihatdan mustahkam bo'lmashligi, jumladan, ovqat hazm qilish va nafas olish tizimlari bu yoshdagi bolalar orasida oshqozon-ichak kasalliklari tarqalishiga olib keladi.

Bog'cha yoshi 3 yoshdan 6–7 yoshgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Bu davrda tananing bo'yiga o'sishi, og'irligining ortishi biroz susayadi. So'z boyligi ortadi, organlari takomillashadi, xotira, fikrlash, tasavvur qilish jarayonlari rivojlanadi. Miya po'stlog'ida juda ko'p shartli bog'lanishlar hosil bo'ladi.

Bolada 2-signal sistemasining shakllanib borishi nutqning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Bola hayotining 1-yilidagi so'nggi oylari va 2-yili nutq rivojlanadigan davr hisoblanadi. Bolalarda nutqning qaror topib borishi jarayoni shartli reflekslar hosil bo'lish qonunlariga muvofiq o'tadi. Bolalarda nutq refleksi taqlid yo'li bilan hosil bo'ladi. Bu reflekslarning qaror topib rivojlanishi esa bolaning katta yoshli odamlar bilan doimiy muloqot qilib turishiga, ta'lim olib o'rganishiga asoslanadi. Hayotining 2-yili davomida lug'at boyligi ancha tez ortib boradi. 3 yoshgacha bo'lgan davr nutq rivojlanishining eng optimal davri hisoblanadi. Nutq 2-signal sistemasi sifatida bolaning yoshligida 1-signal sistemasi asosida paydo bo'ladi. Bola 1 yoshga kirganda 5–10 ta so'zni, 2 yoshda 300 ta, 3 yoshda 1000 ta, 4 yoshda 2000 tagacha so'zlarni ayta oladi. Bolaning so'z boyligi uning sog'ligiga, ota-onasi va tarbiyachilarining madaniyatiga, ular olib borayotgan tarbiyaviy ishlar mazmuniga bog'liq. Bolaning maktab yoshigacha hosil bo'lgan shartli reflekslar, o'rgangan so'zlari miya hujayralarida mustahkam iz qoldiradi. Bolada nutq qobiliyatining paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun uning markaziy asab tizimining tuzilishi normal rivojlangan bo'lishi zarur. Avvalo, uning eshitish organlari va bosh miya po'stlog'ining chakka qismida joylashgan eshitish markazi, shu bilan birga miya yarim sharlar po'stlog'idagi nutq markazi normal rivojlangan va sog'lom bo'lishi kerak. Bu ikkala markazning bittasi rivojlanmagan bo'lsa, bolada nutq paydo bo'lmaydi. Bolaning jismoniy rivojlanishida 2–3 yosh o'ziga xos davr hisoblanadi. Bu davrda bolaning vazni 13–15 kg, bo'yi taxminan 85–90 sm bo'ladi. 2 yoshli bolaning turli harakatlarni qila olishi uning sezgi va idroki, tasavvur va xotirasi, nutqi hamda hissiyoti rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bolada jismoniy harakatlarning muhim hayotiy turlarini shakllantirish (yurish, yugurish, sakrash, emaklash, irg'itish) orqali oyoq, qo'l, tana va bosh harakatlarini rivojlantirish, turgan joyida aylanish bola qomatini to'g'ri shakllantirishga yordam beradi. Tarbiyachining nazorati ostida jismoniy mashqlarni muntazam bajarish qomatni to'g'ri shakllantirish, yassitovonlikning oldini olishga yordam beradi. Bolaning sezgi organlarini rivojlantirish uchun bolaning barmoqlari yordamida rezinali o'yinchoqlarni, paxta, no'xat, yelim idishlarni yig'ishtirish, o'tlarni qo'llari bilan ushlab, gullarni hidlashga ruxsat berish tavsiya etiladi. Bolada madaniy-gigienik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qo'llarini sovunlab yuvib, sochiq bilan artishga o'rgatish lozim. Ertalabki badan tarbiyasi va suv muolajalarini o'tkazishga odatlantirish, to'g'ri ovqatlanish tartibiga rioya qilish, mustaqil ovqatlanishni o'rgatib qo'yish lozim.

Shu bilan birga, bola o'z tanasining qismlarini aytib bera olishi kerak. Buning uchun bola tana a'zolarini (bosh, qosh, ko'z, burun, og'iz, tish, quloq, qo'l-oyoq) ko'rsatib berishga undash lozim. Nutq tovush madaniyatini tarbiyalash uchun bolani aniq, shoshilmay, yetarlicha baland ovozda gapirishga odatlantirish kerak. So'zga taqlid qiluvchi tovushlardan foydalanib, unli (e, i, a, o, u, o') va undosh (m, n, b, p, t, d, k, g, f, v, l, r) tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni mashq qildirish, kichik she'rlarni qaytarish ko'nikmasini tarkib toptirish, tovushga taqlid qiluvchi (vov-vov, chiq-chiq, kuchuk, soat) kabi so'zlarni "ayt", "qaytar" kabi topshiriqlarni bajarishga undash, bolaga turli tovush-bo'g'in talaffuzlarini mashq qildirish kerak.

Hayotining 2-yili oxirlarida elementar iborali nutq shakllanib boradi. Uning paydo bo'lish vaqti intellektning eshitish holati, tarbiya sharoiti va boshqa genetik rivojlanish dasturiga bog'liq. Eng asosiysi, bola o'zining xohish-istaklarini bir so'z bilan, keyin iboralar orqali, sekin-asta gapda so'zlarni to'g'ri qo'llay olish bilan ifodalaydi. Agar bolada 2,5 yoshgacha elementar iborali nutq shakllanmasa, bu uning nutqiy rivojlanishi me'yordan orqada qolayotganligini anglatadi. Shuningdek, 2,5 yoshdagi bola nutqi kattalar bilan muloqotga kirishishning asosiy vositasi bo'lib qoladi. Bolada nutqiy muloqotning yetarlicha bo'lmashligi uning nafaqat nutqiy rivojlanishi, balki umumiy psixik va fiziologik rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bola 3 yoshga qadam qo'yganda jismoniy o'sishi bir qadar sekinlashadi. Bu davrda uning vazni o'rtacha 16–18 kg atrofida, bo'yi 90–100 sm gacha yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch-harakat organlari takomillashib boradi. Bolaning qad-qomati shakllanishida, ayniqsa, umurtqa pog'onasining normal rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Normal holda bo'yin va bel qismida umurtqa pog'onasi biroz oldinga, ko'krak va dumg'aza qismida esa bir oz egilgan bo'ladi. Bu tabiiy egilishlar bir yoshgacha bo'lgan bolalarda bo'lmaydi. Bolaning tik turishi, yurishi, boshini tik tutishi natijasida asta-sekin bu egilishlar hosil bo'ladi. Bolaning qad-qomati normal shakllanishi uchun bolani yoshligidan tekis va biroz qattiqroq to'shakka yotishga



o'rgatish, yostiqning pastroq bo'lishi kerak. To'shakning qalin va yumshoq bo'lishi, yumshoq prujinali karovat, baland yostiq bolaning umurtqa pog'onasi qiyshayib qolishiga sabab bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchi 3 yoshdagi bolalar uzoq vaqt bir joyda o'tirmasliklari, tik turmasliklari, uzoq masofaga yurmasliklari, og'ir buyumlarni ko'tarmasliklari kerak. Bolada D vitamini yetishmasligi yoki quyosh nuridan yetarli foydalanmaslik organizmda kalsiy va fosfor tuzlari almashinuvi buzilishiga sabab bo'ladi va suyaklanish jarayoni sekinlashadi, natijada raxit kasalligi kelib chiqadi. Bularning barchasi bolaning umurtqa pog'onasi va oyoq suyaklari egrilanib qolishiga sabab bo'ladi. Bolaning qaddi-qomatining buzilishiga ba'zan umurtqa pog'onasining bir tomonga qiyshayib qolishi – skolioz sabab bo'ladi. Bolaning jismonan sog'lom o'sishi kelajakda barkamol inson bo'lib yetishishi uchun oilada ota-ona va maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. 3 yoshli bolalarni kuzatganimizda, ular o'z xatti-harakatlarini idora qilish ko'nikmasiga ega bo'la boshlaydi. Bolada mustaqillik ortadi, hissiy-sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo'lib o'ynash ko'nikmasi shakllanadi. 3 yoshli bolaning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari bolaning gavdasini tik tutishga o'rgatishi, jismoniy sifatlarini rivojlantirishga hamda sport turlariga qiziqishini orttirishi, bolani qo'l-oyoq harakatlarini mashqqa muvofiqlashtirishga, oyoqni sudramay, boshni egmay yengil yurishga odatlantirishi va muvozanat saqlashga o'rgatib borishi kerak. Qomatni to'g'ri tutish, yassitovonlikning oldini olishga imkon beradigan mashqlarni tarbiyachining nazorati ostida bolalar bajarsalar, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman, 3–4 yoshli bolalar yurish, yugurish, sakrash, yumalash, irg'itish, ilib olish, balandlikdan sakrash kabi mashqlarni bajara oladi. Bolalarning savodxonligini shakllantirish uchun ularning nutqiga katta e'tibor qaratish, bolaning tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, uy-ro'zg'or buyumlarining shakli, hajmi, sifatini so'rash orqali so'z boyligini orttirish, berilgan savollarga aniq va to'liq javob berishga o'rgatish, qisqa she'rlarni ifodali aytib berishni o'rgatish bilan birgalikda “r”, “l” kabi ayrim tovushlarni talaffuz etishda qiynalsa, to'g'ri talaffuz bo'yicha alohida mashqlarni qildirish orqali bolaning nutqini boyitish mumkin. Mashg'ulot davomida bolalarning elementar matematik ko'nikmalari va bilimlarini rivojlantirish uchun son va sanoqni o'rgatish, buyumlarning rangi, shakli, ko'p yoki bittaligini ajratish, geometrik shakllar bilan – shar yoki kub bilan tanishtirish orqali bolaning matematik savodxonligini oshirish mumkin.

Sahnalashtirilgan o'yinlar orqali teatrlashtirilgan o'yinlarga qiziqish hissini uyg'otish bilan bolaning ijodiy qobiliyatini o'stirish, uning qo'shiq aytish, ertak to'qishga bo'lgan intilishini rag'batlantirish orqali iste'dodini namoyon qilishga bo'lgan havasi rivojlanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilar savodxonligini oshirishda tarbiyachi mashg'ulot davomida bolalarga ta'limiy o'yinlarni o'rgatib borishi zarur. Ta'limiy o'yinlarda bola dunyoni anglaydi, fikrlaydi, muammolarni yecha oladi. Motorik harakat ko'nikmalari shakllanadi, nutq va savodxonlik, og'zaki nutq hamda mimika yaxshi rivojlanadi.

Ta'limiy o'yinlar: “Minorani yig”, “O'yinchoqlarni top”, “Kim to'g'ri aytadi va ko'rsatadi”, “Rangli doiralar”, “Qaysi qo'lda ko'p”, “Zukkolar” o'yini bolaning lug'at boyligini oshiradi.

O'yin mazmuni: bolalar 2 guruhga bo'linadi. Boshlovchi har bir guruhga bittadan so'z aytadi. Qaysi guruh ko'proq so'z aytsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

Ertak aytamiz mashqi: o'zbek xalq ertagini birgalikda tahlil qilish orqali bolalarda nutq ko'nikmasini shakllantirish.

“Zumrad va Qimmat” ertagi tasvirlangan syujetli rasm ko'rsatiladi. Ulardan rasm asosida ertakni so'zlab berish so'raladi. Bolalar bilan ijobiy va salbiy qahramonlar tahlil qilinadi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalar bilan ishlashda tarbiyachi harakatli o'yinlarni tanlashda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Innovatsion g'oyalar doimiy ravishda tarbiyachi faoliyatiga yangiliklar olib kirish orqali ta'lim rivojiga hissa qo'shadi, tarbiyachi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi kunda tarbiyachining interfaol usullarni o'quv mashg'ulotlarida samarali o'yinlar asosida qo'llashi bolalarning nutq madaniyati, xotirasi va aqliy qobiliyatining rivojlanib borishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari doimiy ravishda yaxshi natijalarga erishish uchun innovatsion va fiziologik yondashuvlarni ilmiy asoslangan holda o'zlashtirib borishlari zarur. Qaysiki, bugungi kundagi maktabgacha ta'lim taraqqiyotining innovatsion va fiziologik yondashuvlarni mukammal o'zlashtirishni niyat qilgan tarbiyachilar faoliyati bilan uzviy bog'liqligi kundan-kunga oydinlashib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.X. Aripova, G.A. Shaxmurova. “Yosh fiziologiya va gigiena”. Toshkent-2013.
2. Maktabgacha ta'lim muassasasi va oila hamkorligi 3-modul. Toshkent-2012.
3. “Bolajon” tayanch dasturi. Toshkent-2016.
4. N. Qayumova. “Maktabgacha pedagogika”. Toshkent-2013.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.